

**O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY MADANIY DIPLOMATIYASI:
YANGI TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA**

Ma’muraxon Asrorxo‘jayeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining madaniy merosni asrash va targ‘ib etish sohasidagi xalqaro hamkorligi, xususan YUNESKO bilan olib borilayotgan faoliyati tahlil qilingan. Mamlakatning moddiy va nomoddiy madaniy merosini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy asoslar, milliy qonunchilik me‘yorlari hamda YUNESKOning “Butunjahon merosi” va “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” ro‘yxatlariga kiritilgan O‘zbekiston ob‘yektlari o‘rganilgan. Maqola madaniy merosni himoya qilishni nafaqat tarixiy jihatlama ahamiyatini, balki uni zamonaviy diplomatik munosabatlarning muhim tarkibiy elementi sifatida baholaydi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, tabiiy meros, Sharq taronalari, YUNESKO, madaniy diplomatiya, Butunjahon merosi, Butunjahon merosi Qo‘mitasi (BMQ), Jahon xotirasi.

**UZBEKISTAN’S CONTEMPORARY CULTURAL DIPLOMACY: NEW
TRENDS AND INTERNATIONAL EXPERIENCE**


Annotation: This article analyzes the international cooperation of the Republic of Uzbekistan in the field of preservation and promotion of cultural heritage, with a particular focus on its activities in partnership with UNESCO. It examines the international legal frameworks and national legislative norms aimed at protecting the country’s tangible and intangible cultural heritage, as well as the cultural sites of Uzbekistan included in UNESCO’s “World Heritage” and “Intangible Cultural Heritage of Humanity” lists. The article evaluates the protection of cultural heritage not only in its historical dimension but also as an essential component of modern diplomatic relations.

Key words: cultural heritage, natural heritage, Sharq Taronalari, UNESCO, cultural diplomacy, World Heritage, World Heritage Committee (WHC), Memory of the World.

Madaniy merosni saqlashda YUNESKOga xos jihat bu – merosni mezonlariga ko‘ra bir necha turga bo‘lib moddiy va nomoddiy merosga ajratib ro‘yxatga olish hisoblanadi. Bu amaliyot asosan dunyoning XX asr davomida ikki jahon urushini

o‘tkazishi – madaniy merosni kompleks himoya ostiga olish nihoyatda katta ahamiyat kasb etishining guvohi bo‘lgandan so‘ng boshlangan. Aslida YUNESKOning yaratilishi tarixi ham aynan talofotli jahon urushlari yakunida unga birlashtirilgan vazifalar, jumladan, dunyo madaniy merosini asrashdek vazifalardan boshlangani ma’lum.

YUNESKO tarafidan madaniy merosni quyidagicha ajratilishini kuzatish mumkin¹:



YUNESKO manbalarida, madaniy merosni asrash va bu ishda bundan avvallari va hozirda safarbar qilinayotgan ulkan harakatlardan maqsad – avvalo, har bir millatning o‘ziga xosligini va boshqa millat va madaniyatlar bilan uyg‘unligini o‘rganish uchun olib borilishi ko‘rsatiladi. Deyarli 80 yillik tajribasi nuqtayi nazaridan, YUNESKO jahon urushlari, tabiiy ofat va vaqt ta’siridan tarixiy yodgorliklarni, tabiiy merosni va nomoddiy ma’naviy merosni saqlashning keyingi avlod uchun naqadar muhimligi borasida dunyoning barcha hududlari bo‘ylab faoliyatini davom ettirmoqda.

Umuman olganda, YUNESKOning madaniy merosni muhofaza qilish, sohasining asosini 1972-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh Konferensiyasi tomonidan qabul qilingan “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya” tashkil qiladi. Konvensiya dunyo davlatlarini birlashtirgan o‘ziga xos hujjat bo‘lib, statistika bo‘yicha hozirga qadar tabiiy va madaniy merosni himoya qilish sari eng ko‘p ratifikatsiya amalga oshirilgan. O‘zbekiston Respublikasi bu Konvensiyaning ishtirokchisiga YUNESKoga a’zo bo‘lgan yilda aylangan.

YUNESKO huzurida ushbu Konvensiyaning amalga oshishi yo‘lida mas’ul bo‘lgan Jahon Merosi Qo‘mitasi (WHC – World Heritage Committee), butun dunyo bo‘ylab 21ta YUNESKO a’zo davlatlari vakillaridan tashkil topgan. Bu davlatlar

¹ YUNESKO tarafidan himoya qilinuvchi Tarixiy meros quyidagi turlarga ajratiladi. Muallif tomonidan tuzilgan.

orasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlaridan Qirg'iziston ham o'rin olgan. Qo'mitaning asosiy vazifasi, davlatlar tomonidan nomzodligi taqdim etilgan madaniy-tabiiy meros obyektlarini ro'yxatga kiritilishi uchun asoslar yetarli ekanligini tekshirish, o'rganish, Jahon merosi ro'yxatiga kiritishni amalga oshirishdan iborat².

O'zbekiston Respublikasi hududidagi YUNESKO jahon merosi obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

1. 1990-yilda ro'yxatga olingan Xiva shahri "Ichon qal'asi";
2. 1993-yilda ro'yxatga kiritilgan Buxoro tarixiy markazi;
3. 2000-yilda ro'yxatga kiritilgan Shahrisabz tarixiy markazi;
4. 2001-yilda ro'yxatga kiritilgan Samarqand – madaniyatlar chorrahasi;
5. 2016-yilda ro'yxatga kiritilgan G'arbiy Tyan-Shan tabiiy hududi;
6. 2023-yilda ro'yxatga kiritilgan "Turonning qishki sovuq sahrolari";
7. 2023-yilda ro'yxatga kiritilgan "Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraqum korridori".

O'zbekistonning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlari orasida – G'arbiy Tyan-Shan hududi Ro'yxatning aralash ya'ni, ikki yoki undan ortiq davlat hududida joylashgan Jahon merosi sifatida ro'yxatga olingan.

YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan har bir obyekt shu kundan e'tiboran, butun jahon merosi ekanligi tufayli xalqaro darajada muhofaza etilishini bildiradi. Merosga egalik qiluvchi davlat ular muhofazasini yuqorida keltirilgan turli omillarga qarshi kurashni xalqaro yordam bilan uyg'unlikda amalga oshirishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotiga a'zo bo'lgandan to 2016-yilga qadar Madaniy merosni saqlash borasida Butunjahon merosi Qo'mitasi tomonidan ma'qullangan jami 160,760 AQSH dollariga teng loyihalarni amalga oshirgan.

– Buxoro tarixiy markazi va "Samarqand-madaniyatlar chorrahasi" Jahon merosi obyekti uchun boshqaruv rejasini ishlab chiqish;

– Buxorodagi Rashid madrasasini restavratsiya qilish;

– Obyektlar bo'yicha Jahon merosi nomzodligiga nominatsiya hujjatlarini tayyorlash uchun ushbu mablag' sarflangan.

YUNESKOning "Xavf ostidagi Jahon merosi ro'yxati" mavjud bo'lib, undan turli xil faktorlar, masalan, jamlanishi lozim bo'lgan xususiyat va tavsiflarni yo'qotgani sababli Jahon merosi ro'yxatidan va shuningdek, "Xavf ostidagi Jahon merosi Ro'yxati"dan ham chiqib ketish xavfidagi obyektlar joy oladi. 2016-yilda Shahrisabz tarixiy markazi Xavf ostidagi jahon merosi ro'yxatiga kiritildi va eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra Shahrisabz tarixiy markazi hamon ushbu ro'yxatda bo'lib turibdi³.

² Cultural heritage: 7 successes of UNESCO's preservation work. URL: <https://www.unesco.org/en/cultural-heritage-7-successes-unescos-preservation-work>

³ World Heritage List// <https://whc.unesco.org/en/list/> (accessed 08.11.2023)

YUNESKO va O'zbekiston o'rtasida madaniy merosni muhofaza qilishdagi hamkorligida kuzatilayotgan salbiy tajriba mavjud bo'lib, 2000-yilda Jahon merosi ro'yxatiga kirgan Shahrizabz tarixiy markazining qariyb 16 yil o'tib YUNESKO Butunjahon merosi Qo'mitasi (BMQ) xalqaro mutaxassisleri tomonidan Xavf ostidagi madaniy meros ro'yxatiga kiritilishi hisoblanadi. Qashqadaryoda jami 1468 ta moddiy madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, YUNESKOning ilgari surgan qoidalariga nisbatan turli xildagi noqonuniy qurilmalarning paydo bo'lgani va turli shaxslar tomonidan mavjud qonun-qoidalarga bepisandliklar va jinoyatlar amalga oshirilgani obyektning xavf ostidagi ro'yxatdan joy olishiga sabab bo'lgan.

BMQ Shahrizabz tarixiy markazining Jahon merosi ro'yxatidan chiqib ketishini oldini olish uchun zaruriy amalga oshirilishi lozim bo'lgan tavsiyalarni bergan bo'lib, ularni zudlik bilan bajarish Davlatimizning mustahkamlanayotgan ko'p tomonlama va madaniy diplomatiyasi keyingi rivoji uchun ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

7-ilovadan ma'lum bo'ladiki, Shahrizabz tarixiy markazi o'zida 20 ga yaqin dunyo miqyosida ahamiyatli tarixiy kompleks obyektlarni mujassam etadi. Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan har bir madaniy meros – butun insoniyatning merosi hisoblanib, tarixan muhimligi bilan xarakterlanadi. Ta'kidlash kerakki, Xavf ostidagi jahon merosi ro'yxatiga kirgan jahon merosi namoyondalari o'zining OUV (Outstanding Universal Value) – bemsil universal va umumbashariy qiymati buzilgani, keyinchalik butunlay bu ro'yxatdan chiqib ketishi – dunyoning, insoniyatning ushbu benazir madaniy va tarixiy merosdan mahrum bo'lganini anglatadi. Shuningdek, har bir moddiy madaniy va tarixiy merosning unikalligi hamda ularning boshqa hech yerda qaytarilmas ekanligi e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir jihatdir. Shahrizabz tarixiy markazi obyektlarida YUNESKO ilgari surgan tavsiyalariga ko'ra shoshilinch chora tadbirlarni amalga oshirish kerakligi, o'zining ortga surib bo'lmas vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, masalani har taraflama to'liq ko'rsatib berish uchun – yuqorida asos sifatida ko'rsatilgan Konvensiya va davlatning milliy qonunchiligi, chora tadbirlarining o'zaro kompleksi bilan birgalikda o'rganilishi lozim. Obyektning muhofazasiga qaratilgan, Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 269-son Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 229-son “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi” Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 16.06.2009-yilda Qabul qilingan, Senat tomonidan 29-avgustda ma'qullangan), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moddiy madaniy

va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2014-yil 200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash sohasidagi ishlarni tashkil etishni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 376-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2018-yil F-5181-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil F-5361-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 881-son “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 166-son “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari sohasida restavrator-ustalar malakasini oshirish va ularga malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”⁴gi Qarori kabi huquqiy hujjat va ulardan kelib chiquvchi qoidalar madaniy merosning aynan mahalliy darajada himoya qilinishini ta‘minlaydi. Bundan tashqari Boku shahrida YUNESKOning Butunjahon merosi qo‘mitasining 43-sessiyasida BMQ tomonidan bu kabi muammolarda davlat qonunchiligini kuchaytirish orqali ko‘zlangan natijaga erishish osonlashishini qayd etgan.

Dunyo tajribasida, madaniy va tarixiy meros obyektlari Ro‘yxatdan chiqib ketishi xavfi tug‘ilgan ko‘p hollarda, xususan, Shahrisabz tarixiy markazi vaziyatida ham Ro‘yxatga olingan Jahon merosining tegralarida noqonuniy qurilishlarning ko‘payib borishi, “No Go”⁵ deb ta‘riflanuvchi yoki bufer zonalar hududida qonuniy ruxsatsiz shaxsiy mulk, turistik va boshqa turdagi shahobchalarining joylashtirilishi kabi jinoyatlar sabab bo‘ladi. Ma‘lumki, YUNESKO va O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning tadqiqot ishida keltirilgan bir qator yutuqlari hozirgi paytda butun xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo‘lib, YUNESKO tomonidan O‘zbekiston

⁴ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2001–yil 30–avgust, 269–II–son URL: <https://lex.uz/acts/25461>, O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2021–yil 3–mart, 119–son qarori. URL.: <https://lex.uz/docs/5320217>

⁵ No go area/zone – lug‘atlarda, 1) xavfli yoki odamlarning borishi ruxsat etilmagan hudud, 2) muayyan tashkilot yoki guruh tomonidan odamlarning kiritilmasligi nazorat qilinuvchi, 3) odamlarning turli faoliyatlar(savdo, ko‘ngil ochar faoliyatlar,biznes va x.k.) olib borishi taqiqlangan hudud deb ta‘rif beriladi. Mazkur xolatda esa, xalqaro huquq qonunlariga ko‘ra, mahalliy qonunchilik bilan belgilanuvchi, YUNESKOning “Butunjahon merosi” ro‘yxatiga kirgan turli xil obyektlarning daxlsiz tegralarini anglatadi.

ko‘p tomonlama diplomatiyasi, undagi madaniy diplomatiya vositasini yuksak e‘tirof etilayotgani – necha yillik o‘zaro qattiq mehnat, zalvorli ishlar, O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan o‘ta katta qamrovli faoliyat natijasidir. Shuning uchun ham bu muammo qamrovi, jiddiyligi jihatiga ko‘ra har bir taaluqli tarmoq va sohalar darajasida to‘liq o‘rganilishi lozim bo‘lib, natija – takrorlanmas buyuk merosning saqlab qolinishidan iborat. Zero, BMQning 44 sessiyasi hisobotida keltirilganidek, davlatlarning unikal ahamiyatga ega madaniy merosi namunalarining Xavf ostidagi Jahon merosi ro‘yxatidan chiqib ketishi holatini o‘ziga xos qo‘shirnoq ostidagi “Muvaffaqiyat tarixi” sifatida ta’kidlanishi ham vaziyatning naqadar jiddiy ekanligini ifodalaydi⁶.

Umuman olganda, YUNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatidan madaniy va tarixiy meros obyektlarining chiqib ketishi yoki masalan, ushbu ro‘yxatdan chiqib ketishi xavfiga tushishi O‘zbekiston hukumati va albatta madaniyati uchun ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan hodisa hisoblanib, ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston tarafidan tezlik bilan choralar ko‘rilmoqda.

O‘zbekistonning YUNESKO bilan ko‘p tomonlama diplomatik munosabatlari turli yo‘nalishda davom etar ekan, o‘rganilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniy meros muhofazasiga qaratilgan o‘zaro sa’y harakatlar bir maromda ketgan. Davlat bo‘ylab YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlari turli omillardan muhofaza qilinib borilgan va bu uchun e‘tibor hamda xalqaro yordam ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, hamkorlikning umumiy holati 2010-yildan boshlab stagnatsiya holatida bo‘lganini ko‘rsatadi. Avvalgi faollikning pasaygani, sohalar kesimidagi rejalar yangilanmay, hamkorlikning aktivligi tushib borganini kuzatish mumkin. Masalan, avvalgi paragrafda aniq ko‘rsatilgan jadvalda, turli madaniy tadbirlarning 2009-yildan boshlab nishonlash to‘xtab qolgani, avvalgi faollikning susayganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston diplomatiyasining “Yangi davri” boshlanishida YUNESKO bilan ko‘p tomonlama va madaniy diplomatiyaning ham chin ma’noda qayta uyg‘onishini, chin ma’noda o‘zaro yaqin munosabatlar rivojlanish davri deb atashni taklif qilish mumkin. O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida yana bir o‘ziga xos soha, nomoddiy madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish borasidagi hamkorlik ham faol olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi YUNESKOning 2003-yil 17-oktyabrida qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” asrlar davomida shakllanib kelgan ma’naviy boylik hisoblanuvchi barcha nomoddiy madaniy merosimizni global darajada targ‘ib qilish uchun keng imkoniyatlarni ochgan

⁶ Decisions adopted during the extended 44th session of the World Heritage Committee (Fuzhou (China) / Online meeting, 2021). P.10. URL: <https://whc.unesco.org/archive/2021/whc-21-44com-18-en.pdf>

Konvensiyaga bugungi kunda 180 davlat qo'shilgan bo'lib, O'zbekiston 2007-yil dekabr oyida uning ishtirokchisiga aylangan⁷.

Bugungi kunga qadar Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga quyidagilar kiritildi:

№	O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi⁸	Ro'yxatga kiritilgan sana
1.	“Boysun mintaqasi madaniy muhiti”	2001-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yil Ro'yxatga kiritilgan;
2.	“Shashmaqom” musiqasi (O'zbekiston va Tojikiston davlatlariga tegishli)	2003-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yil Ro'yxatga kiritilgan;
3.	“Katta ashula”	2009-yil Ro'yxatga kiritilgan;
4.	“Askiya – aql san'ati”	2014-yil Ro'yxatga kiritilgan;
5.	“Navro'z” bayrami (12 davlat, jumladan, O'zbekistonga tegishli)	2016-yil Ro'yxatga kiritilgan;
6.	“Palov” madaniyati va an'anasi	2016-yil Ro'yxatga kiritilgan;
7.	“Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adrasni ishlab chiqarish an'anaviy texnologiyalarini himoya qilish”	2017-yilda yaxshi himoya amaliyoti Reyestri namunasi sifatida tanlab olingan;
8.	“Lazgi” Xorazm raqsi	2019-yil Ro'yxatga kiritilgan;
9.	“Miniatyura” san'ati (Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O'zbekistonga tegishli)	2020-yil Ro'yxatga kiritilgan;
10.	“Baxshichilik” san'ati	2021-yil Ro'yxatga kiritilgan.
11.	Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an'analari	2022 yil Ro'yxatga kiritilgan.
12.	“Ipakchilik va to'quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish”	2022-yil Ro'yxatga kiritilgan.
13.	“O'zbekistonda kulolchilik san'ati”	2023-yil Ro'yxatga kiritilgan.
14.	“Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an'analari”	2023-yil Ro'yxatga kiritilgan.

⁷ The States Parties to the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage (2003).
URL: <https://ich.unesco.org/en/states-parties-00024>

⁸ Uzbekistan//<https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ>

15.	“Bezak san’ati: naqqoshlik”	2023-yil Ro‘yxatga kiritilgan.
-----	-----------------------------	--------------------------------

Reprezentativ ro‘yxatga kiritilgan madaniy durdonalar bo‘yicha YUNESKOning “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” Konvensiyasini bajarilishi borasida davlatlar har 6 yilda 1-marta davriy hisobot taqdim etadilar. Ro‘yxatga kiritilgan har bir madaniy merosning bir emas bir nechta xalq madaniyati uyg‘unligini aks ettirishini, va ushbu xalqlarning umumiy ma’naviy ildizlarini ifoda etishini kuzatish mumkin. Ular asrlar oshib saqlanib kelayotgan – tarixiy, bir necha ming yilliklarga teng madaniyat namunalari hisoblanadi. Masalan, yuqoridagi jadvalga ahamiyat berilsa, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya davlatlaridagi uch yuz milliondan ortiq insonlarning umumiy bayrami hisoblanmish Navro‘zning BMT tomonidan 3 ming yillik tarixga ega ekanligi e’tirof etildi. 2010-yildan e’tiboran har yili xalqaro bayram sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohida nishonlanishi belgilandi. Yana bir jihat, sanab o‘tilgan madaniy meros qatorida “Miniatyura san’ati” birgina tushuntirish ishlarining o‘zida, 2020-yilda Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mita tomonidan ovoz berish va muhokamasiz qabul qilingan. Tarixan, O‘zbekiston ham moddiy ham nomoddiy madaniy merosni o‘zida jam etgan buyuk madaniyatga ega. O‘zbekiston va YUNESKOning ushbu sohadagi hamkorligini yanada rivojlantirish, uni o‘rganish va tanitish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning YUNESKO Butunjahon merosi hamda Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi lozim bo‘lgan madaniyat durdonalari talaygina bo‘lib, ushbu paragraf avvalida ko‘rsatilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Nomoddiy madaniy meros borasidagi tahliliy natijalar qatorida, har yili YUNESKO shafeligida o‘tkaziluvchi “Sharq taronalari” xalqaro festivali katta ahamiyat kasb etadi. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali – jahonning turli nuqtalaridan tashrif buyuruvchi ijodiy jamoalar o‘z madaniy merosini namoyon etishlari uchun ikki yilda bir o‘tkaziladi. Ilk marotaba ushbu tadbir O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 1997-yil avgust oyida YUNESKO tashkiloti rahnamoligida o‘tkazildi⁹. O‘rganilgan ma’lumotlar asosida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanishi jarayonida aynan madaniy jihatlama ushbu xalqaro festivalning ahamiyati katta hisoblanadi. Shu bilan birga, agar avval boshida Festivalning xalqaro ishtirokchilari soni jahonning 31 davlatini tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich festivalning VIII chi sonida, ya’ni 2011-yilda 50 dan ortiq davlat

⁹ Сайфуллаев Д. Ўзбекистон маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (1991–2019): Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш», 2020. – Б.124.

ishtirok etganini, 2015-yilda 65 davlat, 2019-yilga kelib, dunyoning qariyb 75 davlati vakillarining ishtirok etganini kuzatish mumkin.

Alohida keltirib o'tish lozimki, bu tadbir 1999-yildan buyon YUNESKO kun tartibidagi tadbirlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, nafaqat Markaziy Osiyo balki global darajada ahamiyatli bo'lib bormoqda. "Sharq taronalari" – turli davlatlarning madaniyat va san'at sohalarida erishgan yutuqlari, shuningdek, asrlar davomida shakllanib durdonaga aylangan madaniy meros namunalarini namoyish qilish, rivojlantirish hamda YUNESKOning madaniy merosni asrashdek eng muhim vazifalarini amalga oshirish uchun o'ziga xos maydon hisoblanadi. Tadbir xalqaro madaniy, ijodiy aloqalarni tobora kengaytirish, yaqinlashtirish va tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashni maqsad qilgan. Pandemiya davri, so'ng uning ta'siri va oqibatlari natijasida, bu tadbir so'nggi 3 yil mobaynida o'tkazilmadi. O'zining xalqaro anjumanlari, eng yaxshi sahna dekoratsiyalari, qiziqarli ko'rgazmalari, g'alaba qozongan vakillar ishtirokidagi gala-konsert bilan yakunlanuvchi navbatdagi katta festivalning 2024-yil Namangan shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

"Sharq taronalari" xalqaro festivali mahalliy va xalqaro olimlar tarafidan O'zbekiston madaniy diplomatiyasi yutuqlari qatoriga qo'shilgan. Qolaversa, fikrimizcha, turli davlatlardan tashrif buyuruvchi san'at va madaniyat vakillarining tashrifi O'zbekistonning jahon miqyosida tanilishiga, munosabatlarning yaqinlashuvi, madaniy-gumanitar o'zaro almashinuvlarni kuchayishiga katta xizmat qiladi.

Madaniy merosni asrashdagi hamkorlikning keyingi jihati bu – YUNESKOning "Jahon xotirasi" ("Memory of the World") dasturi hisoblanadi. 1992-yilda tashkil etilgan Xalqaro ro'yxat davlatlarning har qanday formatdagi muhim va doimiy qiymatga ega bo'lgan hujjatlar yoki hujjatlar to'plamining qaytarib bo'lmaydigan yo'qotilishini oldini olish, asrash va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan dastur hisoblanadi. O'zbekistonning quyidagi noyob yozma yodgorliklari YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan:

- O'zbekistonda saqlanayotgan muqaddas Usmon Qur'oni;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar to'plami;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan "Xiva xonligi kanselyariyasi";
- Buxoro amirligining qushbegi ma'muriyati arxivlari to'plami;
- Mavlono Rumi kulliyoti (O'zbekiston, Bolgariya, Germaniya, Eron, Tojikiston, Turkiya tomonidan taqdim etilgan).

O'zbekiston insoniyat moddiy va nomoddiy merosiga boy davlatlardan bo'lib, uni tanitish va o'rganish – tarixning eng muhim ixtirolari va madaniyatini o'rganishdek muhim. Aslida, madaniy merosning eng muhim xususiyati ham aynan tarixiy

ahamiyatni chuqur o'rgangan holda, hozirgi kun manfaatlariga erishishda foydalanishdan iborat ekanini ushbu tadqiqot va tahliliy ishlar yaqqol ko'rsatdi. Xulosa qilib, birinchidan, Madaniy meros hozirgi paytda nafaqat tarix, madaniyat, din, ilm va boshqa ko'plab sohalarning so'zlovchisi balki diplomatiyaning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlash mumkin. Xuddi shu muhim bo'lgan vazifani global miqyosda YUNESKO o'z zimmasiga olib deyarli 80 yil mobaynida dunyo davlatlari madaniy, tarixiy, tabiiy merosini muhofaza qilib kelmoqda. O'zbekiston va YUNESKO o'rtasida madaniy diplomatiya nazariy va amaliy "meros diplomatiyasi" trendini ham hayotga tatbiq qilayotgani ma'lum bo'ldi.

Ikkinchidan, madaniy meros bu – shunday muhim kategoriyaki, u xalqqa tegishli va ayni damda xalq madaniy va tarixiy merosga tegishli, sababi – asrlar davomida saqlangan bu yodgorliklar ajdodlarning izlanishlarini va qoldirgan ulkan ilmiy-ma'naviy merosini o'zida mujassam etadi. Uni muhofaza etish insoniyatning vazifasi bo'lsa, uni tanish, bilish va bahramand bo'lish ham butun insoniyatning huquqi hisoblanadi. O'zbekiston YUNESKO bilan bu sohada so'nggi yillar davomida ko'p tomonlama, xususan, madaniy va *meros diplomatiyasini* jadal ravishda rivojlantirayotgani tendensiyalari natijasida, YUNESKOning O'zbekiston madaniyatiga bo'lgan katta qiziqishi va madaniy merosini himoya qilishga bo'lgan faol tashabbuslari kuzatildi.

Uchinchidan, ma'lumki, Shahrisabz, Samarqand va Buxoro shaharlarining YUNESKO ro'yxatlaridagi obyektlarini asrashda nafaqat obyektning o'zi balki uning bufer zonalarini muhim ahamiyat kasb etadi. Ekzogen bo'lmagan ko'plab faktorlar aynan obyektlar bufer zonalaridagi yangi qurilish yoki mavjud binolarning qoidalarga amal qilmay buzish holatlaridan kelib chiqishini ta'kidlash kerak. Shu sababli YUNESKOning Xavf ostidagi merosi ro'yxatiga kiritilgan Shahrisabz tarixiy markazi muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlari qatorida shahar xaritalarida, shu bilan birga, onlayn xaritalarda tarixiy markazning tegralari va bufer zonalarini qizil rangda qat'iy belgilanishini yo'lga qo'yishni taklif qilish mumkin.